

TOG‘AY MURODNING “YULDUZLAR MANGU YONADI”
QISSASIDA SA‘J SAN‘ATINING QO‘LLANISHI

Djumayeva Baxtiniso To‘raqulovna

TerDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sa‘j san‘ati nima ekanligi, nimalarga asoslanishi va Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida qo‘llangan sa‘jlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: sa‘j, radif, qofiya, raviy, ohangdorlik, nasriy qofiya.

Asosan, xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan sa‘j san‘ati fikrni ohangdor tasvirlashda, o‘quvchiga hissiy zavq ulashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik Bahodir Sarimsoqov fikriga ko‘ra, “sa‘j” so‘zi arabcha bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi jihatdan qumri, bulbul, to‘ti kabi xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qo‘shilib, jo‘r bo‘lib ketishini anglatadi.¹ Sa‘j san‘ati dastlab fors-tojik adabiyotida qo‘llana boshlagan, turkiy adabiyotda ilk sa‘j namunalarini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida uchratishimiz mumkin. Adabiyotshunoslikka oid turli manbalarni o‘rganish davomida shunga amin bo‘lish mumkinki, olimlar sa‘jga turli davrlarda turlicha ta‘riflar berishgan. Tojik adabiyoti vakillaridan biri R.Musulmonqulov sa‘jga shunday ta‘rif beradi: “Sa‘j nasriy gaplar oxiridagi ikki yoki undan ortiq so‘zlarning qofiyada yoki vaznda, yoki har ikkalasida barobar kelishidan iboratdir”². Bizningcha, sa‘jga berilgan eng to‘g‘ri ta‘riflardan biri – shu. Shunday qilib sa‘j fikrni qofiyali qo‘llash sanaladi. Nasrda qo‘llangan sa‘j “nasri musajja” deb yuritiladi. Nasrdagi sa‘j bitta yoki bir nechta gaplar tarkibida qo‘llanaveradi. Ohangdorlik hosil qiluvchi so‘zlar bitta yoki bir nechta bo‘lishi mumkin. Masalan, “Oqpodsho momomiz sochidan **buraydi**. Oqpodsho momomiz sochidan **sudraydi**”³. Shuningdek, ular radifli yoki radifsiz holda ham qo‘llanadi: “Momomiz yer **quchib-quchib yig‘laydi**. Momomiz yer **tirnab-tirnab yig‘laydi**”⁴. Keltirilgan misolda “yig‘laydi” sa‘jga olingan so‘zlardan keyin radif bo‘lib kelgan.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, sa‘j va qofiya o‘xshash hodisalar bo‘lsa ham, bir necha xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ya‘ni ikkalasida ham o‘ziga xos ritm yuzaga keladi. Bu ritm she‘riyatda ma‘lum tartibga bo‘ysunadi, har bir misrada qat‘iy o‘rinda keladi. Nasri musajjada esa bu qat‘iylik talabi yo‘qligi bois u gapning

¹ Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida sa‘j. Toshkent, 1978, 12-bet.

² Musulmonqulov R. sa‘j va sayri tarixi on dar nasri tojik. Dushanbe, 1970, 26-bet.

³ Murod, Tog‘ay. Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar. Toshkent, 2018. 14-bet.

⁴ Murod, Tog‘ay. Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar. Toshkent, 2018. 14-bet.

xohlagan o‘rnida qo‘llanadi. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi bayt tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Ki bulbul nola **afg‘on** aylamakni mandin o‘rgandi,
Vujudim sham‘i **so‘zon** aylamakni mandin o‘rgandi.⁵

Jahon Otin Uvaysiy qalamiga mansub yuqoridagi baytda “afg‘on” va “so‘zon” so‘zlari qofiyaga olingan so‘zlar bo‘lib, ularning izchil tartibdagi ritmik joylashuvini ko‘rish mumkin. Ushbu bayt hazaji musammani solim (V---/v---/v---/v---) vaznida yozilgan. Ko‘rinib turganidek, qofiyaga olingan so‘zlar har ikkala baytning ikkinchi ruknida 6-7-hijo bo‘lib joylashgan. Shuningdek, nazmda qofiyaga olingan so‘zlarda raviy harfi bo‘lishi shart. Nasri musajjada esa raviy harfi qo‘llanishi ham, qo‘llanmasligi ham mumkin. Masalan, “Fayzi sahar vaqti Tarlonni jabduqlab **mindim**. Katta ko‘chada ohista qadamlatib-qadamlatib **yurdim**”⁶. Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasidan olingan ushbu parchada “yurdim” va “mindim” so‘zlari nasri musajjani hosil qilgan bo‘lib raviy harfiga ega emas. Endi quyidagi misolga e‘tibor beramiz: “Chavandozlar uloqni otlariga **iskatdi**. Uloq yon-verini, tevaragini aylantirib **ko‘rsatdi**”⁷. Bu parchada “iskatdi” va “ko‘rsatdi” sa‘jni hosil qilgan bo‘lib, “t” harfi raviy bo‘lib kelgan. Nasri musajja turkiy adabiyotda o‘rta asrlardan beri qo‘llanib keladi. Asosan, tarixiy voqealarni badiiy tarzda ifodalashda keng qo‘llangan. Xususan, Nosiruddin Rabg‘uziyning “ Qissasi Rabg‘uziy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarini eslab o‘tish joiz. “Boburnoma”dan olingan quyidagi parchaga e‘tibor qaratamiz. “Ushbu kun Sulton Boyazid Nilobdin Pora yo‘li bila **o‘tub**, bizning xabarimizni **topib**, keyinimizcha kelib, arz qildikim, Afridiy afg‘on ko‘ch va moli bila Porada o‘lturubdur... andin saboh ko‘chub, ko‘taldin inib, Haybar tangisidan o‘tub, Ali masjidg‘a tushuldu”⁸. XX asr o‘zbek adabiyotida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlar ham nasri musajjadan foydalanganini ko‘rish mumkin.

Biz bugun o‘rganmoqchi bo‘lganimiz Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida ham nasri musajjaga ko‘plab misollar topish mumkin. Jumladan,

*Tush vaqti ayollar bo‘g‘irsoq, qatlama, shirguruch **ko‘tarib** to‘yladi. Erkaklar qo‘y, tana **yetaklab** to‘yladi.*

*Sochqilarni **ilib-ilib** oldi. Yerga tushgan sochqilarni **talashib-tortishib** qo‘ynilariga **soldi**.*

*Davrada ikkita go‘zal **eshilib-eshilib** o‘ynadi, **to‘lg‘anib-to‘lg‘anib** o‘ynadi.*

*Suyak borib tushmish yerdan chang **ko‘tarildi**... Shundan keyin raqiblari **o‘girildi**. Har tarafga yoyildi.*

⁵ Uvaysiy, Jahon Otin. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2022. 133-bet.

⁶ Murod, Tog‘ay. Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar. Toshkent, 2018. 419-bet.

⁷ Murod, Tog‘ay. Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar. Toshkent, 2018. 422-bet.

⁸ Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent, 2002. 178-bet.

Xiyol o‘tmadi mehmonlar-da **keldi**. Olam jahon odam **bo‘ldi**.

Joysiz qolmishlar **tik turdi**. Davra sirtidagi mashinalarga chiqib **o‘tirdi**.

Kolxoz raisi bosh bakovul **bo‘ldi**. Bakovul oldida turli-tuman ro‘mol, gilam, kalish choponlar **bo‘ldi**.

Taka soqolini **siladi**. Kaftilarini tuflab-tuflab **ho‘lladi**.

Unda qishloq polvonlari birlashib, mehmon polvonlar bilan **kurashadi**. Odamlar kindik qonlari tommish yer shon-sharafi, oriyati uchun **olishadi**.

Davradagi ovozlarni **eshitmay qoldi**, odamlarni deyarli **ko‘rmay qoldi**.

Yo‘lboshchi serka qomatini g‘oz **tutdi**... Izidan tizilishib turmish qo‘y echkilar shoxdor serka yo‘l boshlashini **kutdi**.

Qo‘y-echkilar tuyog‘i ko‘m-ko‘k o‘tda ko‘karib **ketdi**. Qop-qora tumshuqlari yilt-yilt **etdi**.

Uloq **dirkillab** chopdi, uloq **diqqillab** chopdi.

Turdi-turdi, chaylaga **qarab yurdi**.

Darrov **ko‘zini oldi**. Qaraganlariga **pushaymon bo‘ldi**.

Jonivor, men Nasimning onasini **onam deb edim**. Onasi qo‘llaridan **tuz yeb edim**.

Bo‘ri polvon ko‘ngli **o‘rtanib-o‘rtanib** qoldi, **talpinib-talpinib** qoldi.

Momoqizni **o‘ylamas bo‘ldi**, Momoqizni **eslamas bo‘ldi**.

Momoqizni o‘ylasa ko‘ngli tubida parokandalik **kechar bo‘ldi**. Dunyo ko‘ziga **ko‘rinar bo‘ldi**.

Polvonlar **seni menga bormay olishyapti**. O‘zini oynaga **solmay olishyapti**. O‘zini taroziga **solmay olishyapti**.

To‘polon bilan oqib **turdi**. O‘shanda umrida birinchi bor farg‘onacha kurash **ko‘rdi**.

Mayli! O‘, **jon chiqsin**, yo **nom chiqsin**.

Bilgisi-da **kelmaydi!** Boisi, ko‘zga **ilmaydi!**

Brigadasida Suluv degich qiz **bo‘ldi**. Bo‘ri polvon ana shu qizni ko‘z ostiga **oldi**. Suluv Bo‘ri polvon ko‘ngliga o‘tirib **qoldi**.

Endi raykom aytsa-da, gazetachilar ismi sharifimni qoraga o‘rab, dunyoga **do‘mbira qilib chalmaydi**. Raykom aytsa-da, gazetachilar qora kunlarimni g‘animlarimga **ovoza qilmaydi**.

Amir polvon Bo‘ri polvon holini **bildi**. Darrov qo‘ltiqlari ostidan **oldi**.

Yerda kulcha bo‘lib yotmish **tasbehini oldi**. **Ohista qo‘zg‘oldi**.

Yo‘ldosh Oxunboboyev shaxsan o‘zi kelib, yelkamga **qoqdi**. Shaxsan o‘zi kelib ko‘kragimga nishon **taqdi**.

Ko‘nglida shu gapi **bo‘lmagan** yigit yigit emasdir! Shu gapni qaysidir yigitdan intizor bo‘lib **kutmagan** qiz-da – qiz emasdir!

O‘zimizning qirlarga **yo‘l olaman!** Hayrondaradan **ot solaman!**

O‘g‘lim o‘ktamligida yulduzlar yongani yongan bo‘ldi. O‘g‘lim mag‘lubligida so‘ngani so‘ngan bo‘ldi.⁹

Guvohi bo‘lganimizdek, “Yulduzlar mangu yonadi” asarini sinchiklab o‘qirkanmiz bu kabi misollarni ko‘plab uchratishimiz mumkinligini angladik. Adib asarlarining shirali, boshqalarga o‘xshamagan jihatlaridan biri ham shu xususiyati bo‘lsa ajab emas. Yosh tadqiqotchi Z. Suvonov : “Tog‘ay Murod qissalari qissachiligimizga yangicha ohang baxsh etdi” deb haqiqatni yozgan edi.¹⁰

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida sa‘j. Toshkent, 1978.
2. Musulmonqulov R. sa‘j va sayri tarixin on dar nasri tojik. Dushanbe, 1970.
3. Murod, Tog‘ay. Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar. Toshkent, 2018.
4. Uvaysiy, Jahon Otin. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2022.
5. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O‘ZBEK TILIDA BA‘ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. *PEDAGOGS*, 56(2), 31–34.
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 84–87.
7. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 2(1), 301–304.
8. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
9. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 80–83.
10. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
11. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42)).
12. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO‘YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. *IMRAS*, 6(7), 565–569.
13. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. *PEDAGOGS*, 46(1), 57–62.
14. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
15. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.
16. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent, 2002.
17. Suvonov Z. Tog‘ay Murod nasrida obrazlar poetikasi. Dissertatsiya. 2019.

⁹ Murod, Tog‘ay. Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar. Toshkent, 2018. 305-408-betlar.

¹⁰ Suvonov Z. Tog‘ay Murod nasrida obrazlar poetikasi. Dissertatsiya. 2019.